

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOV SHOKIRJON OLIMOVICH

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA
O‘G‘IL BOLALARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA
TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Aripov Shokirjon Olimovich

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi..... 3

Арипов Шокиржон Олимович

Педагогическая система подготовки мальчиков к семейным отношениям в общеобразовательных средних школах..... 25

Aripov Shokirjon Olimovich

Pedagogical system of preparing boys for family relations in secondary schools..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOV SHOKIRJON OLIMOVICH

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘G‘IL BOLALARNI
OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK TIZIMI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4PhD/Ped2062-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna
pedagogika fanlari doktori (DSc),
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Quronov Muxammad
pedagogika fanlari doktori, professor

Erkabayeva Nigora Shermatovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika inistituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "12" 08 kuni soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (286 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. ARM binosi. Tel.: (73) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "04" 08 kuni tarqatildi.
(2023 yil "04" 08 da 1 -raqamli restr bayonnomasi).



B.Sh.Shermuhammadov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

LI.Tuychiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

N.M.O'rino
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.n., professor v.b.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida oilaviy munosabatlar farovonligi davlatning milliy xavfsizligi, mamlakatda innovasion taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning sharti sifatida qaralmoqda. YuNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "ijtimoiy institutlarning ta'limiy, madaniy va ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish"¹ dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Gresiya kabi davlatlarda shaxsning shakllanishi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy institut bu oila ekanligi ta'kidlanib, oilaviy munosabatlar – avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarining uzviyligini saqlaydigan ijtimoiy-madaniy amaliyotning asosiy tashuvchisi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ilg'or tajribalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Dunyoda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni o'zaro bir-birini inkor qiladigan oilaviy murakkab vaziyatlarda to'g'ri tanlovni amalga oshirishga tayyorlash strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodikalarini loyihalashtirishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda oilaning o'g'il bolalar rivojlanishiga yo'naltirilgan maskulistik ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etilishiga alohida e'tibor berilib, ta'lim muassasalarida o'smir yoshdagi o'g'il bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda oilaviy munosabatlar jarayonida gender rollarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'zaro bir-birini inkor qiladigan oilaviy murakkab vaziyatlarda to'g'ri tanlovni amalga oshirish, dini, urf-odatlar, axloq me'yorlari, oilaviy munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining samarali shakllari va usullarini joriy etish, oila va maktabning pedagogik hamkorligini kengaytirish masalalariga ustuvorlik berishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, o'g'il bolalar va ularning tarbiyasi masalasi jamiyat hayotining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustivor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni qabul qilingan. Bu, o'z navbatida, o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda xorijiy va mahalliy tajribalarni integratsiyadash, ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy yondashuvlarni tadbiiq etish,

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality, education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, and Republic of Korea). – P. 6.

“Tarbiya” darslari va sinfdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir takliflar ishlab chiqishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli, 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiylashtirish, oilaviy hayotga tayyorlash, ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy yondashuvlarni tadbiq etishga oid tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan M.L.Abdujabborova, M.Abdullayeva F.A.Akramova, N.Ortiqov, R.X.Djurayev, O.Jamoldinova, M.Inomova, M.T.Isaqova, V.M.Karimova, M.Quronov, A.Q.Munavvarov, O.Musurmonova, N.M.Nagmetova, K.Rahimova, R.G.Safarova, S.X.Tadjiyeva, X.M.Tojiboyeva, M.M.Umarova, B.X.Xodjayev, O.Xasanboyeva, D.Xolikov, M.Xolmatov, Yu.K.Shaamirova, G‘.B.Shoumarov, N.M.Egamberdiyeva, T.A.Egamberdiyeva kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlarida ota-onalarning pedagogik madaniyati va oilaviy munosabatlarning ijobiy imidjini shakllantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan S.P.Akutina, N.V.Annenkova, I.V.Bestujev-Lada, O.Vayninger, N.D.Gubanova, E.P.II’in, I.S.Kon, V.T.Kondrashenko, R.Konnell, D.Lorber, P.F.Lesgaft, A.V.Libin, V.A.Suxomlinskiy, A.V.Chernikov, T.N.Shulga va boshqa bir qator mutaxassislar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilgan.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning gender o‘z-o‘zini anglashi, ijtimoiy rollarga moslashishlari va ularda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish masalalari Anyon Yolanda, Nicole Nicotera, Christopher Veeh, Tai A.Collins, Hawkins, O.Renee, Laura Nabors, Corinna Jenkins Tucker, Tanya Rouleau

Whitworth, Dr.Sadhvi Mythill, M.Kalpana, Clemente Franco, Alberto Amutio, Luis Lopez-Gonzalez, G.Hofstede, S.Holland, L.M.Milner, J.M.Collins, J.Milton, Patricia A.Bennett, Thomas, Hui Liu, Debra Umberson, J.E.Schmid and S.Pollack, I.Sinclair, I.Gibbs, M.William, Jr.Smith kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universitetida amalga oshirilgan PZ-20170930223 “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagogika nazariyasi va amaliyotida o‘g‘il bola tarbiyasi hamda oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va zamonaviy yondashuvlarni aniqlash;

o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayoniga gender yondashuvni tadbiiq etishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik modelini ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning samarali metodlari va strategiyalarini belgilash;

dilemmalardan foydalanish asosida o‘g‘il bolalarda oilaviy munosabatlarga kirishish ko‘nikmasini shakllanganlik mezonlari va daraja ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon tanlab olinib, unda Farg‘ona, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridagi (jami 8 ta) umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 518 nafar o‘quvchilari (5-9 sinf) ishtirok etgan.

Tadqiqot predmetini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon mazmuni, shakl va usullari, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy so‘rov, o‘quvchilar faoliyatining qiyosiy tahlili, pedagogik prognostika va tashxislash, sintez, ekspert baholash, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda xorijiy va mahalliy tajribalar integratsiyasi, ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash asosida tizimli-faoliyatli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli, familistik, genderli va kompetentli yondashuvlarni qo‘llashning ustivor yo‘nalishlari aniqlangan;

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yoʻnaltirilgan jarayonning ijtimoiy pedagogik modeli real imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi, dars va darsdan tashqari faoliyat aloqadorligi bilan boyitilgan motivatsion, mazmunli-tashkiliy, tashkiliy-boshqaruvga doir hamda diagnostik bloklarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

oʻzaro bir-birini inkor qiladigan murakkab vaziyatlarda tanlovni amalga oshirish talab qilinadigan, insonning shaxsiyati va madaniy darajasini koʻrsatadigan dilemmalardan foydalanish asosida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorgarligining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar va indikator koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan;

oʻsmir yoshdagi oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashni taʼminlashga xizmat qiladigan didaktik tizim oilaviy munosabatlarga oid dunyoqarash, gender rollarni shakllantirish, ularda oilaviy ziddiyatlarning salbiy oqibatlarini farqlash tajribasini hosil qilishga yoʻnaltirilgan oʻquv materiallari, seminarlar, sinf soatlari, treninglar va strategiyalarni intensiv loyihalash mexanizmini joriy etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda xorijiy va mahalliy tajribalar integratsiyasi, ushbu jarayonning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy yondashuvlarni tadbiq etish, “Tarbiya” darslari va sinfdan tashqari taʼlim-tarbiya jarayonlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir takliflar ishlab chiqilgan;

oʻsmir yoshdagi oʻgʻil bolalarda oilaviy munosabatlarga oid dunyoqarash, gender rollarni shakllantirish, ularda oilaviy ziddiyatlarning salbiy oqibatlarini farqlash tajribasini hosil qilishga yoʻnaltirilgan oʻquv materiallari, seminarlar, sinf soatlari, treninglar va strategiyalarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi ishlanmalar, savol-topshiriqlar tayyorlanib, tajriba-sinovdan oʻtkazilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida darsdan tashqari faoliyatda oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning optimal pedagogik shart-sharoitlari asosida taʼlim oluvchilar uchun moʻljallangan “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” nomli toʻgarak mashgʻuloti va oʻqituvchilar, ota-onalar uchun “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash” nomli oʻquv seminari dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yoʻnaltirilgan muayyan pedagogik jarayon mazmuni, ushbu jarayon modeli, mazkur modelning pedagogik-psixologik asoslari, uni amaliyotda qoʻllashning qulay shart-sharoitlari hamda ishlab chiqilgan takliflardan foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy oʻrta taʼlim maktablarida darsdan tashqari faoliyatda oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash uchun moʻljallangan “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” nomli toʻgarak mashgʻuloti va oʻqituvchilar, ota-onalar uchun ishlab chiqilgan “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash” nomli oʻquv seminari dasturi mutaxassislar ish tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda xorijiy va mahalliy tajribalar integratsiyasi, ushbu jarayonning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy yondashuvlarni tadbiiq etishga doir takliflardan “Tarbiya” darslari va sinfdan tashqari taʼlim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika taʼlim markazining 2023-yil 10-apreldagi 01/11-02/2-208-son maʼlumotnomasi). Natijada, oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida tizimli-faoliyatli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli, familistik, genderli va kompetentli yondashuvlarni qoʻllashning ustivor yoʻnalishlari aniqlangan;

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yoʻnaltirilgan jarayonning real imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi, dars va darsdan tashqari faoliyat aloqadorligi bilan boyitilgan motivatsion, mazmunli-tashkiliy, tashkiliy-boshqaruvga doir hamda diagnostik bloklarni aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan FZ-2016-0909111822 – “Darsliklar va oʻquv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali oʻquvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik koʻnikmalarini shakllantirish mexanizmlari” nomli fundamental tadqiqot loyihasi (2017-2020) doirasida foydalanilgan (Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining 2023-yil 10-apreldagi 02-07-392/04-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yoʻnaltirilgan jarayonning ijtimoiy pedagogik modeli dars va darsdan tashqari faoliyat aloqadorligini taʼminlashga xizmat qilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida darsdan tashqari faoliyatda oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning optimal pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid tavsiyalari asosida taʼlim oluvchilar uchun moʻljallangan “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” nomli toʻgarak mashgʻuloti va oʻqituvchilar, ota-onalar uchun “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash” nomli oʻquv seminari dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan (Respublika taʼlim markazining 2023-yil 10-apreldagi 01/11-02/2-208-son maʼlumotnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida darsdan tashqari faoliyatda oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash samaradorligini oshirishga erishilgan;

oilaviy munosabatlarga oid oʻzaro bir-birini inkor qiladigan murakkab vaziyatlarda tanlovni amalga oshirish talab qilinadigan, insonning shaxsiyati va madaniy darajasini koʻrsatadigan dilemmalardan foydalanishga oid takliflaridan Oʻzbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan FZ-

2016-0910202206 – davlat qayd raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari” nomli fundamental tadqiqot loyihasi (2017-2020) doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining 2023-yil 10-apreldagi 02-07-392/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashni ta’minlashga xizmat qiladigan didaktik tizimni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 17 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi yuzasidan jami 28 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy jurnallarda, 7 ta respublika jurnallarida, 7 ta xalqaro konfrensiya va 11 tasi respublika konfrensiyalarida nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonining nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan. O‘g‘il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

“Pedagogika” ensiklopediyasida oila pedagogikasi – “pedagogika fanining oilada beriladigan ta’lim-tarbiyaning nazariy-amaliy asoslari bilan shug‘ullanuvchi alohida tarmog‘i” tarzida talqin qilingan bo‘lib, oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini bajarishiga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda jamiyatdagi yangilanishlar kishilarning turmush tarzida ham o‘zgarishlar yasamoqda. Hayotda nikohlarning buzilishi kabi salbiy holatlar yuz bermoqda. Bular, odatda, oila yuritishga ham moddiy, ham ma’naviy tayyor emaslik, pedagogik-psixologik savodsizlik, oila xo‘jaligini yuritish malakasiga ega bo‘lmaslik, yosh oilalarning ota-onaga qaram bo‘lib turishi, tekinox‘rlik, ma’naviy qashshoqlik sababli paydo bo‘lmoqda. Ana shu sharoitlar tufayli umumta’lim maktablaridan o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruriyati paydo bo‘ldi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash muammosi bolaning tug'ilgan kunidanoq boshlanadi, uning to'liq mustaqil shaxs sifatida voyaga yetgunga qadar kattalar nazoratida davom etadi. O'g'il bolalar shaxsiyatini kamol toptirishda oilaviy turmush tarzi, oilaviy tarbiya usullari, oilaviy tarbiya an'analari va qoidalari sezilarli ta'sir etadi. Bunda bola uchun shunday muhit yaratiladiki, unga ko'ra, bola birinchi marta o'zining gender sifatlarini kashf etadi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, asosan, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: oila turmush tarzining ta'siri ostida; pedagoglarning maxsus tarbiyaviy ta'sir o'tkazishi natijasida.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning muvaffaqiyatliliigi nafaqat rivojlantiruvchi dasturlarning mavjudligi bilan yoki bolaning "irsiy" dasturi bilan, balki pedagog shaxsi, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi rivojlanishining ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashni quyidagi integrativ tashkil etuvchilar doirasida o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi: pedagogning kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarining bolaning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o'zaro aloqadorligida shakllanishi, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchining mos sifatlarining rivojlanish kompleksining dinamik tizimlarini ishlab chiqish.

Yosh avlodni komil inson darajasida tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaga xos milliy an'alarining afzalligi, foydasi, oilaning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Sharq va G'arb xalqlari mutafakkirlari, yozma va og'zaki ijod namoyondalari o'z asarlarida bebaho fikrlarni bayon etganlar. Hozirgi davrda oilaning milliy an'alar, qadriyatlar, ma'naviyati va madaniyati namunalarini ta'riflash va ularni hayotga tadqiq etish bilan faylasuflar, siyosatshunoslar, tarixchilar, pedagoglar, psixologlar va boshqa fan soha olimlari shug'ullanib kelayaptilar.

Oila mavzusi mustaqillik yillarida ilmiy-tadqiqot ishlarining bosh mavzusi bo'ldi. Uning turli qirralari yoritilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash bosh muammolardan biriga aylandi. M.R.Bo'rieva, M.Inomova, V.M.Karimova, O.Musurmonova, A.Q.Munavvarov, M.Xolmatov, G'.B.Shoumarovlar ilmiy-tadqiqot ishlarida bu muhim muammoni tadqiqot obyekti qilib belgilab, ular mazkur yirik muammolar tarkibida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yangi mazmun, yangi uslublar kashf etdilar.

Yu.P.Azarov, F.Akramova, M.Inomova, V.M.Karimova, O.Karimova, A.Q.Munavvarov, N.Ortiqov, O.To'rayeva, D.Xoliqov, G'.B.Shoumarovlar oila muammosiga oid taqiqotlar olib bordilar. Ular oilada farzand tarbiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila odobi va an'analari, oilaviy munosabatlar kabi masalalarni falsafiy, psixologik, huquqiy, pedagogik tomonidan tadqiq etdilar.

Olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganish natijalari hamda olib borilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda o'zbek oilalarida o'g'il bolalarni tarbiyalashda milliy tarbiya usullaridan ota-onalarga foydalanishni o'rgatishda quyidagi nomutanosibliklar mavjudligi ma'lum bo'ldi: etnografik, tarixiy, milliy, mahalliy shart-sharoitlar yetarli darajada hisobga olinmaganligi; o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda xorijiy va mahalliy tajribalarning yetarlicha

o'rganilmaganligi; o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanmaganligi; o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda gender yondashuvga yetarli ahamiyat berilmaganligi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila masalasi alohida bob sifatida berilib, unda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, u jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi (63-modda), shuningdek, ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashlari majburligi (64-modda) belgilab qo'yilgan.

I.V.Grebennikov yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy, axloqiy, huquqiy, psixologik, fiziologik-gigiyenik, pedagogik, estetik, xo'jalik-iqtisodiy omillarini sanab o'tar ekan, ularni bir-biriga bog'liq holda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Tadqiqotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda oila va umumiy o'rta ta'lim maktablari optimal imkoniyatlarga ega. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin: pedagoglar va o'quvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirlashuvi betakror yaqinligiga asoslangan, boshqa holatlarda qayta ishlanmaydigan, emosional-psixologik mikroiklimning manbai hisoblanadi; o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash muloqot rivojini barcha kengayuvchi sohalar (qarindoshlik, o'quv, mehnat, dam olish va boshqa munosabatlar)ga yo'naltiradi; oila va maktab hamkorligida bolalarga jinslarning o'zaro munosabatlari va bo'lajak oilaviy hayotdan saboq beriladi; o'g'il bolalarning o'quv va mehnat faoliyati, jamiyat oldidagi javobgarlik, jamoatchilik va o'zaro yordam berish talablariga munosabatni shakllantiradi; bo'lajak vatanparvar shaxsni jamiyatning dunyoviy, mafkuraviy, axloqiy, huquqiy qadriyatlariga munosabatni belgilaydi; oilaviy munosabatlarga tayyorlash natijasida oila va maktab jamoasi umumiy fuqarolik, ta'lim-tarbiya va mehnat majburiyatlarini bajarishda rahbarlikni amalga oshiradi; oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida o'g'il bolalarda xarakter, ijtimoiy mazmun, o'zini baholash va tanqid qilish darajasini shakllantiriladi, bekor vaqtni o'tkazish strukturasi va mazmuni modellashtiriladi.


"Oilaviy munosabat" tushunchasi barqaror ravishda ta'lim nazariyasiga tegishlidir. Qadriyatli munosabatlarni shakllantirish jarayonida insonda bo'ladigan tashqi ta'sirlarni, sharoitlari va turmush tarzini, ayniqsa, insonning yoshi va shaxsini hisobga olish kerak bo'ladi.

Qadriyatli munosabat inson va obyekt o'rtasidagi samarali munosabatlardir. Ushbu obyektни bilish va hayotda idrok qilish, baholash va foydalanish qobiliyati sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Falsafada "munosabat" deganda, uning yashirin xususiyatlarini aniqlash va amalga oshirish sharti sifatida hayotiy narsa-hodisalarga aloqadorlik usuli tushuniladi. Munosabat narsada aks etmaydi va narsalarning xususiyatlarini ham aks ettirmaydi, u nimanidir qilishda ishtirok etish shakli sifatida, nimaningdir ahamiyatini ochib beradi. Munosabat ikkinchisi uchun birinchisining ahamiyatini tavsiflovchi narsa-hodisalar va subyekt orasidagi aloqalarni ko'rsatib beradi.

Tizimli-faoliyatli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli, familistik, genderli va kompetentli yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni

oilaviy munosabatlarga tayyorlash konsepsiyasini yaratishda metodologik yoʻnalish hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar bizning tadqiqotimiz doirasida bir butun yaxlitlikda va oʻzaro bogʻliqlikda qoʻllanildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonini tashkil etishga boʻlgan konseptual yondashuvlar

Tadqiqotda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayoni bir necha omillarga bogʻliqligi aniqlandi: axloqiy meʼyorlarning pasayishi sharoitida umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonini tashkil etishga yangi yondashuvlar va tushunchalar zarur; oilaviy rollarning notinchligi va noaniqligi oʻsmir bolalar oʻrtasida nikoh va oilaviy munosabatlar sohasidagi yangi meʼyorlar va qadriyatlarning tobora kuchayib borayotgan toʻlqini oldida chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda; ushbu tadqiqot uchun asos boʻlib xizmat qilayotgan oilaga qadriyatli munosabatni shakllantirishning metodologik regulyatorlarini asoslash muammosi dolzarb boʻlib qoldi.

Dissertasiyaning “**Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayoniga gender yondashuvni tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik modeli ishlab chiqilgan hamda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash metodlari va strategiyalari bayon qilgan. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ularning gender tiplar haqidagi tasavvurlari aniq tarixiy davr uchun xosdir. Oilaviy munosabatga tayyorlashda ijtimoiylashish mahsuli sifatida alohida oʻgʻil bolalarda ijtimoiy rollarni oʻzlashtirish koʻnikmalari namoyon boʻladi.

Shaxsni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda maskulinlik va feministlik asosiy faoliyat uslubi sifatida gender olamning manzarasini ifodalaydi. Maskulinlik va feministlik omillarining ajratilishida biologik va ijtimoiy jinsdagi farqlar etakchi o‘rin egallaydi. Oilaviy munosabatlarda jinslarning farqlanishi tabiiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy rivojlanish ko‘rsatkichidir. U o‘zining maqsadga yo‘naltirilgan funksiyalariga ega.

Oilaviy munosabatlarda erkaklar va ayollar rollarining tarixiy jihatdan farqlanishi o‘ta chuqur omil hisoblanib, har ikkala jinsning muhim jihatlari va obrazini ommalashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar uchun jinsidan qat’iy nazar teng huquqlilik kafolatlangan. Shu bilan bir qatorda ta’lim jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning teng huquqliligini hisobga olgan holda ularning har biriga xos bo‘lgan milliy madaniyat va xulq-atvor shakllantiriladi. Bunday yondashuv ko‘p asrlar davomida vujudga kelgan bo‘lib, o‘zining ijobiy jihatlari davr sinovidan o‘tkazgan.

X.M.Tojiboyevaning fikricha, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda o‘g‘il va qiz bolalarga xos bo‘lgan gender stereotiplar turli o‘quv materiallari yordamida mustahkamlangan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘g‘il va qiz bolalarning har birida o‘ziga xos xulq-atvor ko‘rinishlarini shakllantirishdan iborat.

Ko‘plab pedagoglar, psixologlar, sotsiologlarning ta’kidlashlaricha, o‘g‘il va qiz bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda jinsga xos muayyan xatti-harakatlar bilan bog‘liq. Jumladan, globallashuv, jamiyatda gibrid madaniyatning tobora keng ko‘lam kasb etayotganligi o‘g‘il va qiz bolalarning xatti-harakatlaridagi jinsga xos nomutanosiblikning vujudga kelishiga asos bo‘lmoqda. Natijada, genderni ijtimoiy konstruksiyalash tushunchasi vujudga keldi.

Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash maqsadida genderga xos madaniy dunyoqarash, ijtimoiy voqelik haqida aniq tasavvur hosil qilish talab qilinadi. Oilaviy munosabatlardagi gender rollar jamiyatdagi muammolar bilan bog‘liq holda shakllanadi va o‘zaro muvofiqlashadi. Agar jamiyatdagi tizim o‘zgarsa, gender bajaradigan rollarda ham o‘zgarishlar vujudga keladi. Rollardagi nomutanosibliklar oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning farzand tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlamaganliklari bilan ham izohlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ma’naviy-axloqiy tarbiya ularda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday kompetensiyalar doirasiga: insonlar orasidagi do‘stona munosabatlar; burch va o‘z xulq-atvori uchun mas’uliyat hissiga ega bo‘lish; mehnat qilishga ehtiyoj va mehnatsevarlik; tabiatga ehtiyotkorona munosabat; uyg‘un tarzda shakllangan oilaviy hayotga intilish; o‘zligini anglash va o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

O‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ularning fikrlash faoliyati jinsiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda bir qator farqli jihatlar bilan ajralib turadi. Masalan, o‘g‘il bolalarning fikrlash faolligi quyidagi tafakkur tarzi bilan bog‘liq holda shakllanadi: ko‘proq chap yarim shar rivojlangan bo‘ladi;

yakka tartibda yaxshiroq ishlaydi; diqqatni bir joyga to'plashlari uchun uzoq vaqt talab qilinadi; axborotni sekin, biroq izchil o'zlashtiradi; voqea-hodisalarni dastlab mohiyatini ko'radi, tezkorlik bilan harakatga o'tadi. Demak-ki, o'g'il bolalarning tafakkur tarzidagi o'ziga xoslik ham ularning nutqida yaqqol namoyon bo'ladi: o'z g'oyalarini gapirib berishi qiyinroq kechadi, so'z zaxirasi kamroq; nutqning so'zlar bilan bog'lanishini ta'minlash, mantiqiy fikrlash, muhim vaziyatlarda aniq so'zlarni topish bilan bog'liq tomoni yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, o'g'il bolalar orasida oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishda pedagoglar va ota-onalar quyidagilarni hisobga olishlari maqsadga muvofiq: ularga qadriyatli munosabatda bo'lish; yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; gender o'z-o'zini anglash jarayonini tashkil etish; umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar bilan bola shaxsini madaniy jihatdan rivojlantirish parametrlarini uyg'unlashtirish; xulq-atvor va faoliyat motivlarini shakllantirish; o'z faoliyatini tashkil etish, o'z-o'zini baholash, mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirish; har bir ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish.

Gender yondashuv asosida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda muayyan prinsiplarga tayanish lozim: axloqiy namuna ko'rsatish prinsipi; tanlagan idealiga muvofiq o'z hayotiy faoliyati yo'nalishini belgilash prinsipi; tizimli faoliyatni tashkil etish va tarbiyalash prinsipi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda madaniy dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida atrofdagilarga do'stona, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi: jamiyat va inson hayotida bilim olish, o'qish, mehnatsevarlik va ijodning katta ahamiyatga ega ekanligini bilish; ijodiy faoliyatning muhim turi sifatida ta'limga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish; inson va jamiyat hayotida ilm-fan, ishlab chiqarishning tutgan o'rni haqida ma'lumotga ega bo'lish; o'zi va boshqalarning mehnati, jamoa mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

Ruhijtimoiy muvofiqlikning vujudga kelishi 5-9-sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglashini ifodalaydi. Bu 3 ta asosiy vazifa bilan ajralib turadi: bolalikdan o'tmishga aylanishi va o'z kelajagini tasavvur qilish loyihasiga ega bo'lish hamda shaxsiy o'zligini anglashning shakllanishiga erishish; o'zining ota-onasidan farqli jihatlarini anglashga intilishning tarkib topishi; o'smir shaxsining o'zligini anglashini ta'minlaydigan qadriyatlar tizimini amalga oshirish.


Bunda pedagoglar turli hikoyalar, rivoyatlar, hikmatlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalana olishlari talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, pedagoglar o'smir yoshdagi o'quvchilarda bunyodkorlik ruhini singdirish, jamiyat a'zolariga nisbatan hurmat tuyg'usini tarkib toptirish, madaniy merosimizni ulug'lash va o'rganishga undash, oilaviy va shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan muhitni tarkib toptirish, o'smir yoshdagi o'quvchilarni gender rollardan xabardor qilish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni rejalashtirishlari va amalga oshirishlari nazarda tutiladi.

O'g'il bolalarda biologik o'ziga xoslikning tadrijiy tarzda namoyon bo'lishi

O'quvchi yoshi	O'g'il bolalarga xos xususiyatlar
10 yoshli o'quvchilar	og'ir, vazmin, ishonuvchan, ota-onalari bilan to'g'ri munosabatga kirishuvchan, o'zining tashqi qiyofasi haqida kam o'ylaydigan, hayotni oson qabul qiladigan
11 yoshli o'quvchilar	intiluvchan, kayfiyati tez o'zgaradigan, ota-onalariga qarshi isyon ko'taradigan, tengdoshlari bilan tez-tez urushib turadigan
12 yoshli o'quvchilar	serjahl, dunyoga haqiqiy munosabatda bo'luvchi, oilada mustaqillikni talab qiluvchi, tengdoshlarining ta'siriga tez beriluvchan, tashqi ko'rinishi haqida ko'p o'ylaydigan, boshqa jins vakillariga nisbatan qiziqish uyg'ongan
13 yoshli o'quvchilar	xushmuomalali, o'ziga tanqidiy qaraydigan, tanqidga nisbatan hissiy munosabatga ega, ota-onalariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladigan, do'st tanlash imkoniyatiga ega
14 yoshli o'quvchilar	kuch-quvvatga to'lgan, muloqotga kirishuvchan, o'ziga ishongan, boshqalarga nisbatan qiziqish bilan qaraydigan, o'z hatti-harakatini muhokama qilib, hayotiy qahramonlar bilan qiyoslaydigan
15 yoshli o'quvchilar	individual farqlarga ega, ruhiyatida birovga bog'liq bo'lmaslik ustivorlik qiladigan, tashqi nazoratdan ozod, o'z-o'zini ongli tarzda tarbiyalaydigan, adolatsizlikka chidolmaydigan, nozik qalbli, zararli ta'sirlarga tez beriluvchan
16 yoshli o'quvchilar	osoyishta, quvnoqlik o'rnini tez-tez isyonkorlik egallaydigan, ichki mustaqilligi ortgan, hissiy osoyishta, muloqotga kirishuvchan

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida strategik maqsadga erishish yo'li (o'quvchilarda shaxslararo muloqotni rivojlantirish)ni aks ettiruvchi mualliflik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model o'zida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda real imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi, ichki va fanlararo aloqadorlik bilan boyitilgan motivatsion, mazmunli-tashkiliy, tashkiliy-boshqaruvga doir hamda diagnostik bloklarni o'zida mujassamlashtiradi (2-rasm).

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayoni hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llash, milliy madaniyat asoslarini faol o'zlashtirish, o'quv vaziyatidan shaxslararo muloqot madaniyatini namoyon etish faoliyatiga o'tishga doir ko'nikmalarni shakllantirish bilan aloqador turli-tuman metodlar (muammoli, empatiya, o'yin terapiya va h.k.), o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish shakllari (muammoli munozaralar, treninglar, noan'anaviy darslar va h.k.), vositalari (multimedia, internet-resurslar, interaktiv doska va h.k.)ni samara qo'llashni talab etadi.



2-rasm. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻgʻil bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon modeli

Tashkiliy-boshqaruv bloki integrativ va kontekstli yondashuvlar asosida oilaviy munosabatlardagi shaxslararo muloqotning faoliyatli komponentini o'z ichiga oladi. Shuning uchun mazkur blok uchun intensivlik, ilmiylik, tushunarlik, ijodiylik, individual va jamoaviy yondashuvlarning birligi tamoyillarini tanlab olish muhim sanaladi. Ushbu blok mazmuni o'g'il bolalarning oilaviy munosabatlarga oid hayotiy voqealar asosida tajribasini boyitish, ularda sinfdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish orqali turli shaxslar bilan muloqot madaniyatiga doir ijobiy tajribani qaror toptirishga yo'naltirilgan.

Diagnostik blok mezonli-diagnostik vositalarni o'zida aks ettirgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash natijalarini muntazam nazorat va tahlil etishni ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ular xulq-atvorida uchraydigan kamchiliklarni korreksiyalash ularda oilaviy munosabatlarga tayyorlashning muhim shartidir. Bunday korreksiyalash tashxislash metodikasini qo'llash natijasida amalga oshadi.

Atrofdagilarning ibrat namunasi o'g'il bolalarning ong ostiga ta'sir ko'rsatib, ularning his-tuyg'ularini qo'zg'atadi. O'g'il bolalarning e'tiborini atrofdagi salbiy hodisalarga qaratish orqali ogohlantirish metodidan foydalaniladi. Bunda salbiy xulq-atvor stereotiplariga ega bo'lgan kishilarning hayotidagi og'ir vaziyatlar uning oqibatlari o'quvchilar ko'z o'ngida tahlil qilinib, bunday xulq-atvor stereotiplarini bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi. Bunday misollar o'g'il bolalarni salbiy harakatlardan tiyilishga undash bilan bir qatorda bunday harakatlarning shaxs va jamiyat hayotiga ko'rsatadigan negativ oqibatlari haqida xabardor bo'lishlariga erishiladi.

O'smir yoshdagi o'g'il bolalarda oilaviy xulq-atvor stereotiplarining shakllanishida o'qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlari, jamiyatdagi taniqli shaxslarning ibrat namunasi katta ahamiyatga ega. O'smir yoshdagi o'g'il bolalar ko'proq otalaridan o'rnak olib ularga ergashadilar. Ota-ona yoki o'qituvchining xulq-atvori va imidji o'quvchilar uchun ibrat namunasi hisoblanadi. Ular har doim ijobiy xulq-atvoriga ega bo'lgan kattalarga ergashadilar, ularga taqlid qiladilar.

O'g'il bolalar pedagoglarning voqelikka munosabatini sinchkovlik bilan kuzatadilar, ularga turli savollar berib, nuqtai nazarlarini aniqlashga harakat qiladilar. Shu asosda o'qituvchilarni baholaydilar. Ular o'zlarining shaxsiy baholariga asoslangan holda o'qituvchilarga nisbatan o'ta ijobiy, o'rtacha va salbiy munosabatlarini bayon qiladilar.

